

ISSN 2181 - 7286
4/2025

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР



ISSN 2181-7286
4/2025

Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар

Тошкент – 2025

МУНДАРИЖА

ФАЛСАФА

Юлдашева Р.Э. Пути преодоления нравственных отклонений в процессе построения демократического общества Узбекистана.....	5
Maxmudov O.T. Korrupsiya tushunchasi va uning namoyon bo'lish shakllari.....	9
Murotov A.I. Qadimi manbalar va xalq og'zaki ijodida o'zbek oilaviy qadriyatlarining ijtimoiy-axloqiy mohiyati.....	12
Степанова О.И., Аскарова М.К. Значение философского анализа языка как знаковой системы для понимания языков программирования.....	16
Azimova Ch.A. Dekart ratsionalizmida aqliy mushohadaning mohiyati va qoidalari.....	20
Xudoyberdiyev Sh.R. Узбекское джадидизм и огромный вклад наших джадидов в развитие и развитие нации.....	26

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

Shomurotova N.N. "Yashil oila" modeli dasturini shakllantirishda xorijiy va milliy yondashuvlar.....	30
Тўлишов F.P. Педагогик касбий компетентлик ва креативликнинг ўзига хос сифатлари ҳамда унинг моҳияти.....	35
Shodmonov Sh. Inklyuziv ta'larning bugungi muammolari va yechimlari.....	42
Karimov R.R. Globalizatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish.....	47
Алимова Н.С. Педагогические и психологические аспекты формирования инновационных компетенций будущих специалистов по дошкольному образованию	54
Kdirbaeva X.M. O'quvchi hayoti va faoliyatida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati.....	59
Abduraxmonov J.Sh. Talabalarni texnika xavfsizligiga o'qitishning ahamiyati, dolzarbligi va yechimlari.....	64
Mansurov B.M. Tibbiyot oliygohlarida bakalavriat talabalariga xirurgik kasalliklar fanining o'qitishning zamonaviy metodlari.....	69
Рашидов А.У. Формирование исследовательского подхода в шахматном мышлении: Эволюция и современная модель аналитической подготовки.....	72
Yakubova B. Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik-psixologik muammo sifatida.....	77
Yusupov A.I., Arzikulov G'P. Talabalarda muhandislik kompetensiyalarini shakllanishida matematik bilimlarning o'rni va matematika fanini o'qitish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar haqida.....	81

ИҚТИСОД

Эрназаров F.B. Ўзбекистонда хизмат кўрсатиши соҳасининг асосий кўрсаткичлари, статистик таҳлили ва уни ривожлантириш истиқболлари.....	86
Гулямова Н.Х. Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	93
Митрушова М.Л. Перспективные направления устойчивого туризма Республики Узбекистан.....	97

Журнал Ўзбекистон матбуот ва ахборот агентлиги томонидан рўйхатга олинган, 2007 йил 22 январь, № 0205 сонли гувоҳнома

ISSN 2181-7286. Иқтисод бўлими ОАК рўйхатига 2019 йил 1 январдан, Педагогика бўлими 2019 йил 29 июндан, Тарих, Фалсафа, Психология бўлимлари 2022 йил 30 ноябрдан, киритилган.

2. <https://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/7336>
3. <http://uzembassy.org.tr/news/6215>
4. <https://gov.uz/ru/iiv/rag'ez/o-zbekiston-rəspublikasi-vazirlar-mahkamasining-qar orlari>
5. <https://iibb.uz/ru/menu/ozbekiston-rəspublikasi-vazirlar-mahkamasinigr-qaror lari>
6. <https://www.unicef.org/tajikistan/ru>

UDK: 93; 37.0

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

FORMATION OF PROFESSIONAL MOTIVATION OF FUTURE TEACHERS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Karimov R.R. (CHDPU v.b. dotsenti, (PhD)

Mazkur maqolada globalizatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Motivatsion komponentning psixologik-pedagogik mohiyati ochib berilgan holda, uni takomillashtirish yo'llari – kasbiy o'zlikni anglash, ichki motivatsiyani kuchaytirish, ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish, refleksiv yondashuvni shakllantirish va ijtimoiy-pedagogik muhit bilan integratsiya qilish yo'nalishlari chuqur tahlil etilgan. Maqolada talabalarda pedagogik kasbga ijobiy munosabatni shakllantirish orqali ularning kasbiy o'sishiga zamin yaratishning zamonaviy yondashuvlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, motivatsion komponent, kasbiy o'zlik, ichki motivatsiya, ijtimoiy mas'uliyat, refleksiv yondashuv, pedagogik muhit, globalizatsiya, kasbiy rivojlanish, psixologik-pedagogik holat.

В статье анализируются вопросы формирования и развития профессиональной мотивации будущих учителей в условиях глобализации. Раскрывая психолого-педагогическую сущность мотивационного компонента, глубоко анализируются пути его совершенствования: осознание профессиональной идентичности, усиление внутренней мотивации, развитие чувства социальной ответственности, формирование рефлексивного подхода и интеграция с социально-педагогической средой. В статье обосновываются современные педагогические подходы к созданию фундамента профессионального роста у студентов путем формирования позитивного отношения к педагогической профессии.

Ключевые слова: будущий учитель, мотивационный компонент, профессиональная идентичность, внутренняя мотивация, социальная ответственность, рефлексивный подход, педагогическая среда, глобализация, профессиональное развитие, психолого-педагогическое состояние.

This article analyzes the issues of forming and developing professional motivation of

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

future teachers in the context of globalization. Having revealed the psychological and pedagogical essence of the motivational component, the ways of its improvement are deeply analyzed - awareness of professional identity, strengthening internal motivation, developing a sense of social responsibility, forming a reflexive approach and integration with the socio-pedagogical environment. The article substantiates modern pedagogical approaches to creating a foundation for professional growth in students by forming a positive attitude towards the pedagogical profession.

Keywords: future teacher, motivational component, professional identity, intrinsic motivation, social responsibility, reflexive approach, pedagogical environment, globalization, professional development, psychological and pedagogical state.

Globalizatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – zamonaviy ijtimoiy talab va ehtiyojlarga javob bera oladigan, yuqori kasbiy salohiyatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarni tayyorlashdir. Bugungi kunda pedagogik faoliyat nafaqat bilim berish, balki shaxs kamolotiga ko‘maklashish, ijtimoiy muhitda yo‘naltira olish, fuqarolik ongini shakllantirish kabi ko‘plab murakkab va mas’uliyatli funksiyalarni o‘z ichiga olmoqda. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarda nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki kasbiy motivatsiyani shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kasbiy motivatsiya, ayniqsa, motivatsion komponent pedagogik ta’lim jarayonida shaxsiy va kasbiy rivojlanishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu komponent bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishi, maqsadga yo‘naltirilgan intilishi, ichki rag‘batlari va ijtimoiy-pedagogik qadriyatlarga sodiqligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Aynan motivatsion asoslarning puxta shakllanishi natijasida pedagog kasbining ijtimoiy ahamiyati anglanadi, unga sadoqat bilan yondashish, o‘z ustida doimiy ishslash istagi kuchayadi.

Mazkur maqlada motivatsion komponentning mazmuni, uning asosiy tarkibiy yo‘nalishlari hamda global ta’lim muhitidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy o‘zlikni anglash, ichki motivatsiyani kuchaytirish, ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirish, refleksiv yondashuvni rivojlanish hamda ijtimoiy-pedagogik muhit bilan integratsiyalashish orqali motivatsiyani mustahkamlash yo‘llari tahlil qilinadi.

Motivatsion komponent – bu bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatga bo‘lgan ichki qiziqishi, ijtimoiy-pedagogik faoliyatga ongli ravishda intilishi, o‘z ustida ishslashga, doimiy ravishda kasbiy va shaxsiy rivojlanishga intilishi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik-pedagogik holatdir. Ushbu komponent o‘qituvchilik kasbini tanlashdagi ijtimoiy-ma’naviy sabablarga, kasbiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga, shuningdek, bu kasbda o‘zini anglash va o‘zini namoyon etishga tayyorlik darajasiga bog‘liq.

Globalizatsiya sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning motivatsion komponentini rivojlanirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Kasbiy o‘zlikni anglashni shakllantirish – talabalarning o‘zini kelajakda pedagog sifatida tasavvur qilishi, pedagogik mehnatga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishi, bu kasbning jamiyatdagi ijtimoiy rolini chuqur anglab yetishi motivatsiyaning muhim shartidir.

2. Ichki motivatsiyani kuchaytirish – talabalarning ta’limga bo‘lgan ichki ehtiyojini rag‘batlantirish, ularning shaxsiy qadriyatlari va hayotiy maqsadlarini kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish orqali kasbiy o‘sishga turki beriladi. Bu jarayonda mustaqil ta’lim, innovatsion loyihalarda ishtirok etish, muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali pedagogik faoliyatga qiziqishni kuchaytirish mumkin.

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

3. Ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirish – pedagogik kasb jamiyatda alohida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning samaradorligi nafaqat o‘qituvchining bilim va malakasiga, balki uning ma’naviy-axloqiy fazilatlariga, kasbga bo‘lgan fidoyiligiga bog‘liqdir. Shu bois, ijtimoiyadolat, fuqarolik pozitsiyasi, insonparvarlik va tolerantlik kabi qadriyatlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy mas’uliyat hissi shakllanriladi.

4. Refleksiv yondashuvni rivojlantirish – motivatsion komponentni mustahkamlashda o‘z-o‘zini baholash, o‘z ustida ishlash va o‘zini doimiy takomillashtirishga intilish katta rol o‘ynaydi. Talabalarda o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq olish va yangi yondashuvlarni qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish orqali ularning kasbiy motivatsiyasi oshiriladi.

5. Ijtimoiy-pedagogik muhit bilan integratsiya – bo‘lajak o‘qituvchilarning real pedagogik faoliyatga yaqinlashuvi, maktablar bilan hamkorlikda olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlar, ustoz-shogird tizimidagi tajriba almashinuvi ularning kasbiy motivatsiyasini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Motivatsion komponentning yuqori darajada shakllanganligi bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Chunki faqat kasbga nisbatan ijobjiy va ongli munosabatgina talabalarning izlanishiga, yangilikka ochiqligiga, kasbiy faoliyatda innovatsion va ijtimoiy mas’uliyatli yondashuv namoyon etishiga imkon beradi.

Kasbiy o‘zlikni anglash (professional identity) – bu shaxsning o‘zini muayyan kasb egasi sifatida anglash jarayoni bo‘lib, u kasbiy faoliyatga oid qadriyatlar, me’yorlar, motivlar, bilim va ko‘nikmalar tizimining ichki o‘zlashtirilishi orqali namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy o‘zligini anglash – uning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy-pedagogik kompetentligini shakllantirish va pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatlari ishlashining asosiy psixologik-pedagogik sharti hisoblanadi.

Kasbiy o‘zlikni anglashning boshlang‘ich bosqichi – bu kasbga bo‘lgan dastlabki qiziqish va kasbiy ideal shakllanishidir. Aynan shu bosqichda talaba o‘zining hayotiy yo‘lini belgilab, tanlagan kasbini anglaydi, unga nisbatan o‘z munosabatini shakllantiradi. Bu jarayon pedagogik kasbning mohiyatini tushunish, o‘qituvchilik faoliyatining jamiyatdagi ijtimoiy va ma’naviy rolini anglash orqali boshlanadi.

Dastlabki qiziqishning shakllanishi

Dastlabki qiziqish asosan quyidagi omillar ta’sirida shakllanadi:

- Oilaviy va ijtimoiy muhit – o‘qituvchilar sulolasi, ota-onalarning ta’limga bo‘lgan ijobjiy munosabati, oila a’zolarining rag‘batlantirishi kasbga qiziqish uyg‘otadi.
- Avvalgi ta’lim tajribasi – maktab davridagi o‘qituvchilarning shaxsiy namunasi, ularning o‘quvchiga bo‘lgan ta’siri, dars berish uslubi va munosabati o‘qituvchilik kasbiga qiziqish uyg‘otuvchi muhim omillardandir.
- Shaxsiy ichki ehtiyojlar – talabaning odamlar bilan ishlash, bolalar tarbiyasiga hissa qo‘sish, bilim ulashish istagi uning pedagogik kasbga qiziqishini mustahkamlab boradi.

Kasbiy ideal – bu shaxs tomonidan o‘z tanlagan kasbining eng yuksak namunasi sifatida tasavvur qilinadigan, ichki e’tiqod, qadriyat va orzular asosida shakllangan ramziy shaxsiy modeldir. Pedagogik kasbda bu ideal odatda quyidagi fazilatlar bilan ifodalanadi:

- yuqori bilim saviyasi va professional mahorat;
- axloqiy poklik, fidoyilik va mehribonlik;
- tarbiyaviy ta’sirchanlik, bag‘rikenglik va sabr-toqat;
- ijodkorlik, yangilikka ochiqlik va doimiy o‘sishga intilish.

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

Kasbiy ideal talabaning ichki ruhiy tayanch nuqtasi bo‘lib, u shaxsiy rivojlanish mezoniga aylanadi. Talaba o‘z kasbiy yo‘lida shu idealdagi fazilatlarni egallashga intiladi, o‘zini doimiy ravishda baholab, shu idealga yaqinlashishga harakat qiladi.

Kasbiy idealni shakllantirish vositalari:

- Ilhomlantiruvchi o‘qituvchilar – talabaning hayotida uchragan ijobiy pedagogik shaxslar kasbiy idealni shakllantirishda eng muhim manbadir.
- Adabiyot va biografiyalar – buyuk pedagoglarning hayoti va faoliyati bilan tanishish (masalan, Jan-Jak Russo, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy) yosh avlodda kasbiy orzu va qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.
- Ilmiy-pedagogik muhit – universitetda yaratilgan ta’limiy va tarbiyaviy muhit, ochiq muloqotlar, mahorat darslari va kasbiy munozaralar talabaning kasbiy idealini aniqlashtirishga yordam beradi.

Kasbga bo‘lgan dastlabki qiziqish va kasbiy ideal – bu bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanish yo‘lida ilk qadamidir. U pedagogik faoliyatga ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi, kasbga sadoqat hissini uyg‘otadi va shaxsiy rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi. Shu sababli, oliy pedagogik ta’limda ushbu bosqichni ongli ravishda qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish muhim strategik vazifalardan biridir.

Kasbiy idealning shakllanishi shaxsning o‘zini shu kasb bilan ichki jihatdan bog‘lashiga, ya’ni kasbiy identifikatsiya jarayoniga olib keladi. Kasbiy identifikatsiyalash – bu shaxsning o‘zini muayyan kasb egasi sifatida tan olishi, kasbda o‘z rolini anglash va o‘zining professional “men” obrazini yaratishidir.

Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbiy idealiga nisbatan quyidagi savollarga ichki javob topishga harakat qiladi:

- Men qanday o‘qituvchi bo‘lishni xohlayman?
- Qanday fazilatlar menga xos va qandaylarini rivojlantirishim kerak?
- Men pedagogik faoliyat orqali jamiyatga qanday foyda keltira olaman?

Ushbu savollar orqali shaxs o‘zining kasbiy yo‘nalishini aniqlashtiradi, kasbga oid xatti-harakatlarini ongli ravishda shakllantiradi, ya’ni u o‘zini o‘qituvchi sifatida identifikatsiya qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati kasbiy ideal qanchalik aniq, real va shaxsiy qadriyatlar bilan uyg‘un bo‘lishiga bog‘liq.

Shuningdek, kasbiy identifikatsiyalash o‘qituvchi shaxsiyatining barqarorligini ta’minlaydi, professional stressga bardoshlikni oshiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi. Bu jihatlar esa ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishda uning kasb tanlashdagi motivlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Motiv – bu shaxsni muayyan faoliyatga undovchi ichki kuch bo‘lib, u kasbga bo‘lgan munosabat, faoliyatga kirishish sababi va uni davom ettirish istagini belgilaydi.

Kasb tanlash motivlari ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

Ichki (mazmunli) motivlar:

- bolalar bilan ishlashga bo‘lgan ishtiyoq;
- bilim berish va tarbiyalash orqali jamiyatga foyda keltirish istagi;
- o‘zini pedagogik sohada ro‘yobga chiqarish;
- kasbga muhabbat, unga sadoqatli bo‘lish istagi;
- Insonparvarlik, sabr-toqat, bag‘rikenglik kabi axloqiy qadriyatlarga asoslangan qaror.

1. Tashqi (formal) motivlar:

- ish joyining kafolatlanganligi yoki ijtimoiy maqomi;

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

- moddiy sabablardan kelib chiqadigan qarorlar;
- oila a'zolarining yoki jamiyatning bosimi;
- ta'lif tizimining mavjud imkoniyatlariga moslashish.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki motivlar asosida tanlangan kasb, ayniqsa o'qituvchilik, uzoq muddatli, barqaror va ma'naviy jihatdan boy faoliyatni kafolatlaydi. Tashqi motivlar esa qisqa muddatli bo'lib, shaxsiy kasbiy izlanishga va rivojlanishga yetaricha turtki bera olmaydi.

Shuning uchun oliy pedagogik ta'lif muassasalari talabalarda ichki motivatsiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmog'i lozim. Bu esa darslarda ilhomlantiruvchi pedagogik holatlar yaratish, faoliyatga oid muammolarni muhokama qilish, motivatsion treninglar va ijodiy loyihalar orqali amalgalash oshiriladi.

Kasbiy ideal va kasbiy identifikatsiyalash, shuningdek kasb tanlash motivlari – bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonidagi eng muhim psixologik-pedagogik omillardir. Ular orqali shaxs o'zining kelajagini pedagogik faoliyat bilan bog'laydi, bu kasbda o'z o'rnnini va vazifasini anglaydi, natijada ijtimoiy-pedagogik kompetentlikning mustahkam poydevori yaratiladi.

Tahliliy jadval: Kasb tanlash motivlari taqqoslovchi tahlili

Motiv turi	Mazmuni	Ta'siri	Barqarorlik darajasi
Ichki motivlar	Bolalarga mehr, bilim berish ishtiyobi, jamiyatga xizmat qilish orzusi	Kasbga chuqur sadoqat, ijodiy yondashuv, o'z-o'zini rivojlantirish	Yuqori
Tashqi motivlar	Ijtimoiy bosim, iqtisodiy sabablarga ko'ra tanlov, ota-onalar ta'siri	Qoniqarsiz ichki motivatsiya, kasbiy charchashga olib kelishi mumkin	Past

Ichki motivlar asosida tanlangan kasb barqaror psixologik tayyorgarlik va kasbiy muvaffaqiyat kalitidir.

Kasbiy rolni o'zlashtirish – bu bo'lajak o'qituvchining o'zini tanlagan kasb doirasidagi vazifalar, javobgarlik va ijtimoiy holatlarga mos tarzda tutishni o'rganish va ichkilashtirish jarayonidir. Bu jarayon shaxsiy ongda "men – o'qituvchiman" degan tasavvurni mustahkamlab boradi va kasbga oid real faoliyat bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Kasbiy rol nima?

Kasbiy rol – bu jamiyat tomonidan pedagog shaxsiga nisbatan qo'yiladigan kutuvlar, majburiyatlar va faoliyat mezonlarining majmuasidir. O'qituvchi roli:

- bilim beruvchi,
- tarbiyachi,
- yo'l ko'rsatuvchi,
- axloqiy namunachi,
- kommunikator,
- ijtimoiy lider sifatida namoyon bo'ladi.

Kasbiy roldagi o'zlashtirish bosqichlari:

1. Nazariy idrok qilish

Talaba pedagogik nazariy bilimlar asosida o'qituvchi rolining ijtimoiy ahamiyatini tushunadi. Bu bosqichda kasbga nisbatan ongli munosabat shakllanadi.

2. Kuzatish orqali model olish

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

Amaliyot jarayonida tajribali o‘qituvchilarning faoliyatini kuzatish, ulardan namunalar olish orqali talaba kasbiy xatti-harakatlarning modelini shakllantiradi.

3. Imitatsion faoliyat

Talaba seminar-treninglar, rolli o‘yinlar, pedagogic holatlar tahlili orqali kasbiy vaziyatlarga nisbatan o‘zining muomala, qaror va ta’sir usullarini sinab ko‘radi.

4. Real kasbiy faoliyatda ishtirok etish

Amaliyot davrida yoki mustaqil ta’lim jarayonida o‘z zimmasiga o‘qituvchilik mas’uliyatini olish orqali talaba kasbiy rolga “kiradi” va uni real muhitda bajarishga harakat qiladi.

5. Ichki identifikatsiya

Talaba o‘zini o‘qituvchi sifatida qabul qiladi, o‘z kasbiy xatti-harakatlarini mustaqil boshqaradi va o‘zining kasbdagi o‘rnini anglaydi.

Kasbiy rolni o‘zlashtirishga ta’sir qiluvchi omillar:

Omil	Izoh
Ta’lim muhiti	Universitetda yaratilgan pedagogik muhit, ochiq muloqotlar, tajribali o‘qituvchilarning yondashuvi
Amaliyot sifati	Pedagogik amaliyot davomida beriladigan mustaqillik, murabbiylilik yordami
Shaxsiy motivatsiya	Kasbga sadoqat, bolalarga mehr, o‘z ustida ishlashga bo‘lgan intilish
Ijtimoiy baholash	Kasbiy faoliyat natijalarining ijobiy e’tirof etilishi va jamiyat tomonidan qadrlanishi
Refleksiya va tahlil	O‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq chiqarish, o‘zini rivojlantirishga tayyorlik

Kasbiy pozitsiya – bu shaxsning tanlagan kasbiga nisbatan ongli, barqaror, ijtimoiy-axloqiy jihatdan asoslangan munosabati va bu munosabat asosida shakllanadigan kasbiy xatti-harakatlar tizimidir. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun kasbiy pozitsiya nafaqat kasb tanlovi, balki ushbu kasb doirasida o‘zini qanday tutishini belgilaydigan tamoyillar majmuidir.

Kasbiy pozitsiyaning asosiy tarkibiy qismlari:

Tarkibiy qism	Izoh
Qadriyatli munosabat	O‘qituvchilik faoliyatini ijtimoiy foydali, ahamiyatli deb qabul qilish.
Mas’uliyat hissi	Har bir pedagogik harakat natijasi uchun javobgarlikni his qilish.
Axloqiy tayyorgarlik	O‘quvchilar bilan insonparvarlik asosida muloqot qilish, odob-axloqni namuna qilish.
Tashabbuskorlik va liderlik	O‘z kasbiy faoliyatini mustaqil tashkil qilish, yangilik kiritishga intilish.
Reflektiv tahlil	O‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish, o‘z ustida ishslash.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishida motivatsion komponent asosiy psixologik-pedagogik omil sifatida alohida o‘rin tutadi. Ushbu komponentning rivojlanishi o‘qituvchining kasbiy o‘zligini anglash, ichki motivatsiyasini kuchaytirish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish, refleksiv yondashuvga ega bo‘lish va ijtimoiy-pedagogik muhit bilan faol integratsiyalashish orqali amalga oshiriladi. Globalizatsiya

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan murakkab va ko‘p qirrali vazifalarni hal etishda yuqori motivatsiyaga ega, faol, ijtimoiy mas’uliyatli pedagog shaxsini shakllantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan, pedagogik ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar, mustaqil ta’lim va amaliy faoliyatga asoslangan metodikalar orqali motivatsion komponentni shakllantirish va rivojlantirish zarur. Bu esa, o‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, ularni real ijtimoiy-pedagogik muhitga tayyorlashga xizmat qiladi.

Kasbiy rolni o‘zlashtirish bo‘lajak o‘qituvchining o‘zini kasbiy shaxs sifatida tan olishi, o‘qituvchilik faoliyatini ichki ehtiyoj sifatida qabul qilishi va ushbu kasbga mos xulq-atvorni ongli ravishda egallashi jarayonidir. Bu jarayon orqali shaxsning ijtimoiy-pedagogik kompetentligi mustahkamlanadi, ya’ni o‘z kasbiy burchini muvaffaqiyatli bajarishga tayyorlik darajasi yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedova, N. A. (2021). Pedagogik motivatsiya va kasbiy o‘sish muammolari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Karimov, R. R. (2020). Kasb tanlashda motivatsiya: psixologik yondashuv. – Toshkent: Fan.
3. Abduqodirova, Z. M. (2022). “Bo‘lajak pedagoglarda refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari”. Ilmiy-amaliy jurnal “Pedagogika va psixologiya”, №3(89), 45–52.
4. Xodjayev, N. H. (2019). Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iqtisodiyot.
5. Dewey, J. (2004). Democracy and Education. New York: Dover Publications.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. OECD (2019). Teaching and Learning International Survey (TALIS) – Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. OECD Publishing.
8. UNESCO (2020). Teacher Motivation Framework for Sustainable Development Goals. Paris: UNESCO.